


"O'ZKIMYOSANOAT" AJDA YAPONIYANING "MARUBENI" KOMPANIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

// 30 March 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/marubeni>







Bugun "O'zkimyosanoat" AJda Yaponiyaning yirik savdo kompaniyalaridan biri hisoblangan "Marubeni" kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda kompaniyaning O'zbekistondagi vakolatxonasi yangi rahbari Kensuke Nishiyama tanishtirildi. Shu bilan birga, hozirgi kunda Yaponiya va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida mineral o'g'itlar hamda kimyoviy maxsulotlarga bo'lgan talab yuqori ekanligini inobatga olgan holda, O'zbekistondan ushbu maxsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishib olindi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "Marubeni" Yaponiyaning eng yirik savdo kompaniyalaridan biri hisoblanadi. Kompaniyaning mahsulot assortimenti juda keng bo'lib, ular tarkibiga kimyo sanoati maxsulotlari ham kiradi. Uning Yaponiyada 30 ta filiali va 79 ta davlatda 158 ta vakolatxonalari mavjud.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati